

# **KIBERXAVFSIZLIK INJINIRINGI YO'NALISHI UCHUN SUHBAT JARAYONIDA BERILADIGAN NAMUNAVIY SAVOLLAR TO'PLAMI**

## **I BLOK. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish bo'yicha savollar:**

1. Mamlakat aholisini ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlashda kiberxavfsizlikning o'rni qanday?
2. O'zbekiston Respublikasi kiberxavfsizlik to'g'irisidagi qonunning ahamiyati nimadan iborat?
3. O'zbekistonda Respublikasida kiberxavfsizlikni yuksak darajada ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar nimalardan iborat?
4. Kibermakon deganda nima tushuniladi va unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qanday kibertahdidlar mavjud?
5. Kiberxavfsizlik obyekti hamda kiberxavfsizlik subyekti bo'lib nimalar xizmat qiladi?
6. Kiberxavfsizlik sohasini tartibga solishga nisbatan yagona yondashuv tamoyili nimaga asoslanadi?
7. Kiberxavfsizlik sohasida vakolatli davlat organi va uning asosiy vazifalari nimadan iborat?
8. Kiberxavfsizlikni ta'minlash deganda nima tushuniladi?
9. Kiberhujumlarning qanday turlari mavjud va uni amalga oshirishda umumiy maqsad nimadan iborat bo'lishi mumkin?
10. Ma'lumotlarni sizib chiqishi nima va undan qanday himoyalani usullari mavjud?
11. Ma'lumotlarni zaxira nusxalarini ko'chirishni ahamiyati nimadan iborat?
12. Kiberxavfsizlikning ta'minlanganlik darajasini baholash degandan qanday jarayon tushuniladi?
13. Kiberxavfsizlik hodisalari kim tomonidan tekshiriladi hamda bunda qanday chora-tadbirlar amalga oshiriladi?
14. Muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining kiberxavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
15. Kiberxavfsizlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish kim tomonidan amalga oshiriladi hamda nimalardan iborat?
16. Yurtimizda tashkil etilayotgan raqamli texnologiyalar markazi haqida bilasizmi?
17. Mamlakatimizda Axborot texnologiyalariga oid qanday o'quv yurtlarini bilasiz? Misol keltiring.
18. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallari haqida nimalarni bilasiz?
19. Mamlakatimizda Axborot texnologiyalariga oid qanday tashkilot va muassasalarni bilasiz?
20. Mamlakatimizda axborotlashtirish va raqamlashtirish sohasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda.

## **II BLOK. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)**

### **bo'yicha savollar**

1. Kelajakda kiberxavfsizlik sohasi bo'yicha kasb tanlashda boshqa sohalarga qaraganda bu sohani o'ziga jalb etadigan jihati nimadan iborat?
2. Kiberxavfsizlik sohasida milliy dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan harakatlarni qanday baholaysiz?
3. O'zbekiston kibermakonida kiberxavfsizlikni ta'minlaganlik darajasini qanday baholaysiz?
4. XXI asr axborot asri hisoblanadi. Shuni hisobga olib kiberxavfsizlikka va uni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni qanday izohlaysiz?
5. Aholi soni ortib borayotgan bir sharoitda kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilayotgan e'tibor yetarlicha yuqori hisoblanadimi?
6. Nima deb o'ylaysiz, bo'lishi mumkin bo'lgan kiberhujumlarni asosiy maqsadi nimadan iborat?
7. Kiberxavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadigan milliy axborot tizimlarini ishlab chiqish va joriy qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga sabab nima?
8. Jamiyat rivojlangan sari kiberxavfsizlikka bo'lgan talab ham ortib boradi. Bunga sabab nima?
9. Kiberxavfsizlik sohasida qonunchilikda bu sohani tartibga soluvchi yetarlicha qonunlar ishlab chiqilgan deb hisoblaysizmi?
10. Korxonalaridan kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida xorijda ishlab chiqarilgan dasturiy mahsulotni joriy qilish maqsadga muvofiqmi yoki milliy dasturiy mahsulotni? Javobingizni izohlang.
11. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Kiberxavfsizlik to'g'risida» qonunni asosiy vazifasi nimadan iborat?
12. Kiberxavfsizlikni ta'minlashni amalga oshiruvchi tashkilotlar qanday turdagi xizmatlarni ko'rsatadi?
13. O'zbekistondagi Kiberxavfsizlik sohasidagi qanday korxonalar va tashkilotlarni bilasiz?
14. Kiberxavfsizlik, kiberhujum va kiberhimoya tushunchalariga ta'rif bering?
15. Kiberjinoyatchilik deganda nima tushuniladi?
16. Mamlakatimizda axborot xavfsizligi sohasining rivojlanishi va hozirgi kundagi talablari.
17. Mamlakatimizda Kiberxavfsizlik sohasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
18. Mamlakatimizdagi masofadan o'qitish tizimlari haqida ma'lumot bering
19. Axborot qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
20. Kompyuterlarda foydalaniladigan tizimli dasturlar

### **III BLOK. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar:**

1. Siz bugungi kungacha asosiy yutuqlaringiz deb nimani bilasiz? Siz buni qanday boshqardingiz?
2. Axborot xavfsizligi xodimi qanday xarakter xususiyatlariga ega bo'lishi kerak? Sizda ushbu fazilatlarining qaysi biri bor?
3. Siz o'qishdan qanday maqsad ko'zlayapsiz? Bunda siz uchun nima muhim (kamida uchta mezon)?
4. Siz oldin axborot xavfsizligi bo'yicha ishlab chiqarish sohasida ishlaganmisiz?
5. Axborot xavfsizligi sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar haqida ma'lumot bersangiz?
6. Sizningcha axborot xavfsizligi sohasida faoliyat yurituvchi xodim uchun qaysi bilim sohalarini bilish muhim?
7. Axborot xavfsizligi sohasida ta'lim olishingizni kim maslahat berdi?
8. O'qishni tamomlagandan keyingi maqsadingiz qanday?
9. Axborot xavfsizligi sohasi o'rganish uchun hozirda biror amaliy ish qilyapsizmi? Dasturlashni o'rganyapsizmi? Ingliz tilini o'rganyapsizmi?
10. Siz ta'lim olgan texnikumda axborot xavfsizligi sohasida qanday fanlar mavjud edi?
11. Axborot xavfsizligi sohasi dolzarb ekanligini so'ngi yuz bergan voqealar bilan isbotlay olasizmi?
12. Nima deb o'ylaysiz qanday bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan abiturientlar OTM-da o'qishni davom ettirishi kerak?
13. Agar siz talabalikka qabul qilinmasangiz, keyingi rejalarangiz qanday bo'ladi?
14. Odamlarni eng samarali ishlashga undovchi narsa nima? Sizning uchunchi?
15. Qaysi OTMlari axborot xavfsizligi sohasida ta'lim beradi? Xorijda va respublikamizda?
16. IT muhandislik kasbi insonga qanday mas'uliyat yuklaydi?
17. IT muhandis qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozim?
18. IT muhandis bo'lish uchun qaysi bilimlar zarur?
19. Sizningcha kompyuter o'yinlariga qiziqish turli xil moliyaviy muammolarni tug'diradimi?
20. Kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxxasi qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozim

### **IV BLOK. Axborot xavfsizligi mutaxassisligi bo'yicha:**

1. Kiberxavfsizlik deganda nimani tushunasiz?
2. Kiberxavfsizlikning vazifalari nimalardan iborat?
3. Axborotni konfidensialligini ta'minlash deganda nimani tushunasiz?
4. Axborotni yaxlitligini ta'minlash deganda nimani tushunasiz?
5. Risk nima va uning kiberxavfsizlikdagi o'rni?
6. Hujumchi kabi fikrlash nima uchun zarur?
7. Tizimli fikrlash nima va u nima uchun zarur?
8. Axborot xavfsizligi va axborotni himoyalash tushunchalarini bir-biridan farqi?
9. Tahdid va zaiflik tushunchalariga izoh bering.
10. Kriptografiyaning asosiy tushunchalariga: shifrlash, deshifrlash, kalit, shifr, ochiq matn, shifrmtn, alifbo, izoh bering.
11. Axborotni simmetrik va ochiq kalitli shifrlash algoritmlari yordamida shifrlashdagi afzallik va kamchiliklarni ayting?
12. Kodlash va shifrlash tushunchalarining bir – biridan farqini ayting.
13. Kriptologiya va steganografiyaning o'zaro farqini ayting?
14. Simmetrik kriptografiya nima va uning axborotni himoyalashdagi o'rni haqida gapiring.

15. Ochiq kalitli kriptografiyaga izoh bering va uning axborotni himoyalashdagi o'rni haqida gapiring?
16. Xesh funksiya nima, ularga qo'yilgan talablar va uni axborot himoyalashdagi o'rni?
17. Pseudotasodifiy sonlar generatoriga misollar keltiring.
18. Kriptografik akslantirishlar: o'rniga qo'yish va o'rin almashtirish nima?
19. Kriptografiyaning matematik asosi.
20. Web saytlarga bo'ladigan DOS hujumni tushuntiring.
21. Simmetrik kriptotizimlar tushunchasiga izoh bering.
22. Sezar o'rniga qo'yish shifrlash usuli.
23. Ma'lumotlarni yaxlitligini ta'minlash usullari haqida ayting.
24. Ma'lumotlar bazasida xavfsizlikni ta'minlash haqida ayting.
25. Elektron raqamli imzo va xabarlarini autentifikatsiyalash kodlarining bir-biridan farqi hamda o'xshash tomonlarini ayting?
26. Identifikatsiya nima?
27. Elektron raqamli imzoning axborot xavfsizligidagi rolini tushuntiring.
28. Autentifikatsiya nima? Bir faktorli va ko'p faktorli autentifikatsiyaga misol keltiring.
29. Axborotni kriptografik himoyalash vositalarining ko'rinishlari va ularning afzallik/kamchiliklari.
30. Elektron ko'rinishdagi ma'lumotlarni yo'q qilish usullari va ularning xususiyatlari.
31. Foydalanuvchilarni autentifikatsiyalash usullari va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
32. Parolga asoslangan autentifikatsiya usuli va uning afzallik/kamchiliklarini ayting.
33. Parollar ma'lumotlar bazasida qanday saqlanadi va ularni taqqoslash usullari haqida ayting.
34. Axborotning fizik himoyasi va uning muhimligini tushuntiring.
35. Axborotni fizik xavfsizligiga ta'sir qiluvchi tabiiy va sun'iy omillarni aytib bering.
36. Tarmoq topologiyasi nima va uning turlarini sanang.
37. Tarmoq qurilmalarining: tarmoq kartasi, repitor, xab, svitch, router, ko'priklar, shlyuzlar, asosiy vazifasini ayting.
38. Asosiy tarmoq protokollari va ularning vazifalarini ayting.
39. Tarmoq viruslari va antivirusli himoyalash muammolari.
40. Zararli dasturiy vositalarga asoslangan hujumlarning asosiy maqsadi nima va ularga misollar ayting.
41. Zaxira nusxalash nima va uning turlarini sanang.
42. Ma'lumotlarni yo'qolishiga olib keluvchi asosiy sabablarni ayting.
43. Dasturiy vositalarga qo'yilgan xavfsizlik talablariga misollar ayting.
44. Dasturiy vositalar xavfsizligini ta'minlashda dasturlash tillarining o'rni tushuntiring.
45. Zararli dasturlar nima va ularning asosiy turlarini sanang.
46. Kompyuter viruslari nima va ularga misollar ayting.
47. Zararli dasturlar va ularning klassifikatsiyasi keltiring.
48. Antivirus dasturiy vositalarini tanlashdagi talablar va ularga misollar keltiring.
49. Axborot xavfsizligi siyosati nima va uning asosiy vazifasi nimadan iborat?
50. Axborotni huquqiy himoya qilish va axborot xavfsizligi sohasidagi halqaro va milliy qonunchilik hujjatlari.